

---

Qo'shtepa tumanida yangi yil bayram tadbirlari ko'tarinki kayfiyatda nishonlanmoqda

Bugun Qo'shtepa tumani Madaniyat markazida qalbi bayram shodligiga yo'g'rilgan jajji o'g'il-qizlar bilan o'zgacha fayzga to'ldi.

Yangi yil ayyomi munosabati bilan tashkil etilgan ushbu tadbirga tashrif buyurgan turli ertak qahramonlari, qorbobo va qorqizni bolajonlar ko'tarinki kayfiyatda, davomiy qarsaklar ila qarshi oldilar, Ayniqsa, sahnalaشتirilgan qiziqarli dasturni miriqib tomosha qildilar.

Eslatib o'tamiz 31 dekabrga qadar har kuni soat 18 dan 19 gacha tuman Madaniyat markazi sahniga o'rnatilgan ulkan archa atrofida qiziqarli bayram dasturlari, shuningdek 22 dekabr kuni tuman Madaniyat markazida hamda 28-29 dekabr kunlari "Istiqlol" mahallasi hududidagi "Istiqlol" madaniyat markazida soat 12.00 va 14.00 da bolajonlar uchun bayram dasturi namoyish etiladi.

2024-12-21 15:58:48